



TEST VARIANTI RAQAMI: **1941491**

## BIOLOGIYA

Ushbu test varianti 30 ta test topshirig'idan iborat. Uni bajarishga 1 soat vaqt belgilash tavsiya etiladi. Natijani bilish uchun javoblaringizni javoblar varaqasiga belgilab, rasmini [@dtmxizmatbot](#) orqali jo'nating. Sizga omad tilaymiz!

TEST VARIANTI RAQAMINI JAVOBLAR VARAQASIGA TO'G'RI KO'CHIRING!

1	9	4	1	4	9	1
2	2	2	2	2	2	2
3	3	3	3	3	3	3
4	4	4	4	4	4	4
5	5	5	5	5	5	5
6	6	6	6	6	6	6
7	7	7	7	7	7	7
8	8	8	8	8	8	8
9	9	9	9	9	9	9
0	0	0	0	0	0	0

- Nuqtalar o'rniga mos javobni tanlang.  
Sayg'oqning muskul hujayrasida energiya almashinuvining glikoliz bosqichida ... kuzatilmaydi.  
1) glukozaning fermentlar ishtirokida kislorod ishtirokisiz parchalanishi; 2) ATFDa to'plangan energiyaning issiqlik energiyasi sifatida tarqalgan energiyadan ko'p bo'lishi; 3) glikogendan glukozaning hosil bo'lishi; 4) glukozadan sut kislotasining hosil bo'lishi.  
A) 2, 3    B) 1, 3    C) 1, 2    D) 2, 4
- Otasi gemofiliya bo'yicha sog', onasi esa gemofiliya bilan kasal erkak somatik hujayrasining mitoz sikli profazasida  $h$  (I),  $H$  (II) allellari sonini aniqlang.  
A) I-2; II-0    B) I-1; II-2    C) I-0; II-1  
D) I-0; II-2
- DNK fragmentining bir zanjiri 1050ta nukleotiddan iborat bo'lib, DNK qo'sh zanjiridagi timin nukleotidlari 10%ni tashkil etsa, DNK qo'sh zanjiridagi dezoksiriboza qoldig'ining sonini (a), adenin va timin nukleotidlari orasidagi vodorod bog'lar sonini (b) aniqlang.  
A) a - 221; b - 1560    B) a - 442; b - 780  
C) a - 2100; b - 420    D) a - 442; b - 1170
- Quyida berilgan fenotiplarning qaysilari  $BB$  yoki  $Bb$  allellari tomonidan yuzaga chiqadi?  
A) g'o'za tolasining novvot rangda bo'lishi; no'xat urug'ining burushgan shakli  
B) no'xat dukkagining oddiy shakli; no'xat gulining qizil rangi  
C) nomozshomgul gulining qizil rangi; xo'roz tojining oddiy shakli  
D) odamda soch tolasining taram-taram shakli; xoldor to'tida patining oq bo'lishi
- Odam askaridasining exinokokkdan farq qiluvchi xususiyatlarini aniqlang.  
1) metamorfoz orqali rivojlanadi; 2) hazm qilish sistemasiga ega; 3) tanasi kutikula bilan qoplangan; 4) urg'ochisida tuxumdon va bachadon mavjud; 5) asosiy xo'jayinga lichinkali pufagi yuqadi; 6) ikki juft so'rg'ichlari yordamida ichak devoriga yopishib oladi.  
A) 3, 5    B) 4, 6    C) 1, 3    D) 2, 4
- Markaziy nerv sistemasining quyidagi qismlarida qanday nerv markazlari joylashgan?  
a) uzunchoq miya; b) gipotalamus; c) o'rta miya; d) miya ko'prigi;  
1) uchlik nerv markazi; 2) po'stloqosti ko'rish markazi; 3) yuz muskullarini harakatlantiruvchi nerv markazi; 4) nafas olish nerv markazi; 5) ko'z soqqasini harakatlantiruvchi nerv markazi; 6) po'stloqosti eshitish markazi; 7) gipofizni boshqaruvchi nerv markazi; 8) ovqat hazm qilishning nerv markazi.  
A) a - 7; b - 2; c - 3; d - 8  
B) a - 2; b - 7; c - 8; d - 3  
C) a - 4; b - 7; c - 6; d - 5  
D) a - 2; b - 3; c - 1; d - 6

7. Nazariy jihatdan DNK molekulasining birinchi zanjirida nukleotidlar GCC ACG TAG TGG TGG GGT TCG GAT ketma-ketligida joylashgan bo'lib, uchinchi tripletidagi T nukleotidi C nukleotidga almasha, mutatsiyadan so'ng, shu qo'sh zanjirdagi har bir nukleotid yig'indisini aniqlang.
- A) T - 5, A - 7, C - 9, G - 3  
 B) A - 13, C - 11, T - 13, G - 11  
 C) A - 5, T - 7, C - 3, G - 9  
 D) A - 8, C - 16, T - 8, G - 16
8. Kelib chiqish markazi Janubiy Amerika hisoblangan o'simliklar haqida ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
- 1) kartoshka; 2) sabzi; 3) karam; 4) beda; 5) makkajo'xori; 6) tamaki.
- A) 5 - changchilari 5ta, gultojbarglarining qo'shilishidan hosil bo'lgan nayga o'rnashgan; 3 - uch bargchali murakkab bargga ega  
 B) 1 - bir uyli; 4 - gulkosachabargi ikki qavatli; 6 - gullari qiyshiq  
 C) 2 - to'pguli murakkab soyabon; 5 - hayotiy shakli daraxt  
 D) 1 - changchilari 5ta, gultojbarglarining qo'shilishidan hosil bo'lgan nayga o'rnashgan; 6 - urug'chisi bitta
9. 7 g oqsil O<sub>2</sub> yordamida oksidlanganda qancha kcal (a) va kJ (b) energiya hosil bo'ladi?
- A) a-65,1; b-272,3 B) a-123,2; b-28,7  
 C) a-272,3; b-65,1 D) a-28,7; b-123,2
10. Dengiz tulkisining qon aylanish sistemasida qon harakati to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
- a) jabralarga keladi; b) yurak bo'lmachasiga keladi; c) yurak qorinchasidan chiqadi; d) organlarga keladi;
- 1) arteriyalarda venoz qon; 2) yurak venasida arterial qon; 3) qorin aortasida arterial qon; 4) yurak venasida venoz qon; 5) orqa aortada venoz qon; 6) qorin aortasida venoz qon; 7) orqa aortada arterial qon; 8) venalarda venoz qon.
- A) a - 1, b - 3, c - 5, d - 7  
 B) a - 2, b - 3, c - 6, d - 8  
 C) a - 1, b - 4, c - 6, d - 7  
 D) a - 2, b - 5, c - 7, d - 8
11. Hayvonot olamida aromorfoz yo'nalishiga mos evolyutsion o'zgarishlarni aniqlang.
- 1) baliqlarda bosh va orqa miyaning paydo bo'lishi; 2) jigar qurtida so'rg'ichlarning paydo bo'lishi; 3) halqali chuvalchanglar tipining paydo bo'lishi; 4) tasmasimon chuvalchanglarda hazm qilish sistemasining yo'qolishi.
- A) 1, 2 B) 2, 4 C) 1, 3 D) 2, 3
12. "Sinf" sistematik birligiga mos keluvchi javobni aniqlang.
- A) korall poliplar, bo'shliqichlilar  
 B) bir pallalilar, yassi chuvalchanglar  
 C) sporalilar, xordalilar  
 D) xivchinlilar, lolasimonlar
13. Nuqtalar o'rniga mos javobni tanlang.
- O'simlik epidermasi peridermadan farq qilib . . . .
- 1) o'simlikning yashil novdalarini qoplab turadi; 2) hujayralari o'lik; 3) og'izchalarga ega; 4) suberinga ega; 5) mum bilan qoplangan; 6) bir qavat shaffof hujayradan iborat.
- A) 1, 4, 6 B) 3, 5, 6 C) 1, 2, 3 D) 2, 3, 5
14. Abiotik omil ta'sirini aniqlang.
- A) chug'urchuqni dalalardagi hasharotlarni terib yeyishi  
 B) ko'l baqasini qo'ng'iz, pashsha kabi mayda umurtqasiz hayvonlar bilan oziqlanishi  
 C) yangi olma navini yaratish  
 D) suvning harorati oshganida planariyaning mayda bo'laklarga bo'linishi
15. Nuqtalar o'rniga mos javobni tanlang.
- Proprioretseptorlar . . . .
- A) yelkaning ikki boshli muskuli paylarida joylashgan retseptorlar  
 B) aorta devorida joylashgan retseptorlar  
 C) bodomsimon bezda joylashgan retseptorlar  
 D) oshqozon shilliq pardasida joylashgan retseptorlar

16. Spaniel it zotlarida yungning qora bo'lishi jigarrang ustidan, kalta bo'lishi uzun bo'lishi ustidan to'liq dominantlik qiladi. *AB* tipdagi gametalari hayotchan bo'lmagan digeterozigota urg'ochi va erkak itlar o'zaro chatishtirildi. Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanib, quyidagilarni aniqlang:
- avlodda olingan itlarning fenotipik guruhlari nisbati;
  - qora kalta yungli itlarning genotiplari
- a* - 7 ta qora kalta yungli:3 ta jigarrang kalta yungli:1 ta qora uzun yungli:1 ta jigarrang uzun yungli; *b* - *AABb*, *AaBb*
  - a* - 3 ta qora uzun yungli:3 ta jigarrang kalta yungli:2 ta qora kalta yungli:1 ta jigarrang uzun yungli; *b* - *AaBb*
  - a* - 5 ta qora kalta yungli:1 ta jigarrang kalta yungli:3 ta jigarrang uzun yungli; *b* - *AAbb*, *Aabb*
  - a* - 7 ta qora kalta yungli:3 ta jigarrang kalta yungli:1 ta qora uzun yungli:1 ta jigarrang uzun yungli; *b* - *AaBB*, *AaBb*


17. Termit oilasi haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
- ishchilari voyaga yetmagan erkaklaridir
  - voyaga yetmagan erkaklari in qurish va oilani boqish vazifasini bajaradi
  - oilasida bitta urg'ochi va erkak termitlar hamda bir necha milliongacha ishchilar, qo'riqchilar bor
  - ona, erkak va ishchilarning jag'lari kuchli rivojlangan

18. Eukariot (a) va parazit prokariot organizm (b) berilgan javobni aniqlang.
- a* - *batsidiya*; *b* - *gerpes*
  - a* - *parmeliya*; *b* - *gripp qo'zg'atuvchisi*
  - a* - *zang zamburug'i*; *b* - *ko'kyo'tal qo'zg'atuvchisi*
  - a* - *kladoniya*; *b* - *ensefalit qo'zg'atuvchisi*

19. Kamola o'pkasining tiriklik sig'imi 3500 ml ga teng bo'lsa, uning nafas olish sistemasi haqidagi qaysi fikr to'g'ri?

- ichki qovurg'alararo va qorin muskullari qisqarganda ko'krak qafasi kengayadi
- qorin va ichki qovurg'alararo muskullar qisqarganda ko'krak qafasining hajmi kichrayadi
- ko'krak qafasi kengayganda tashqi qovurg'alararo va diafragma muskullari bo'shashgan holatda bo'ladi
- ko'krak qafasi hajmining torayishi tashqi qovurg'alararo va diafragma muskullarining qisqarishi orqali ta'minlanadi

20. Oziq zanjirlaridagi 1, 2, 3, 4-raqamlarga mos organizmlarni aniqlang.



- 1 - tuvaloq; 2 - laylak; 3 - ilon; 4 - lochin
- 1 - sariq falanga; 2 - sichqon; 3 - jayron; 4 - emu
- 1 - o'rgimchak; 2 - bug'u; 3 - kaltakesak; 4 - arxar
- 1 - asalari; 2 - kolorado qo'ng'izi; 3 - musicha; 4 - lochin

21. Floemaning (1) va ksilemaning (2) mexanik to'qima tuzilmalarini aniqlang.

- 1 - lub tolalari; 2 - traxeidlar
- 1 - elaksim on naylar; 2 - traxeidlar
- 1 - lub tolalari; 2 - yog'ochlik tolalari
- 1 - yog'ochlik tolalari; 2 - o'tkazuvchi nay

22. Evolutsiya natijasida organik olamda maskirovka (a), himoya rangi (b) orqali moslashgan organizmlar to'g'ri juftlangan javobni aniqlang.

1) chupchik hasharoti rangi va shakli ingichka novdani eslatadi; 2) ildam kaltakesak qum rangida bo'ladi; 3) kuropatka yozda bir qishda boshqa rangda bo'ladi; 4) qovog'ari tana rangi ko'zga yaqqol tashlanadi; 5) kallima kapalagining qanotlari shakli, naqsh va tomirlari bargga o'xshash bo'ladi.

- A) a - 1; b - 2    B) a - 4; b - 5  
C) a - 2; b - 4    D) a - 3; b - 5

23. Jadvalning qaysi qatorlarida (№) organizmlar, ularning xususiyatlari va ular mansub turkumlar muvofiq tarzda berilgan?

№	Organizm	Organizmlarning xususiyatlari	Turkum
1.	yo'rg'a tuvaloq	kaltakesaklar va mayda kemiruvchilar bilan oziqlanadi	tuvaloqlar
2.	chigirtka	to'liq o'zgarish bilan rivojlanadi	nina-chilar
3.	oddiy lavlagi	ikki yillik o'simlik, changchilari beshta	sho'radoshlar
4.	qora baliq	skeleti suyakdan iborat	karp-simonlar
5.	oddiy jag'-jag'	gulkosachabarglari, gultoj bargi to'rttadan	jag'-jag'
6.	dorivor gulxayri	changchilari ko'p, barglari oddiy, yonbargsiz, bir yillik o't	gulxayri

- A) 1, 2, 4    B) 1, 4, 5    C) 2, 5, 6    D) 1, 3, 5

24. Embrional rivojlanish davri ona organizmidan tashqarida amalga oshuvchi organizmlarni aniqlang.

1) ko'l baqasi; 2) muflon; 3) lansetnik; 4) skuns; 5) sayg'oq; 6) kabarga; 7) lemur; 8) o'rdakburun

- A) 6, 8    B) 2, 4    C) 5, 7    D) 1, 3

25. Gidrosferaning umurtqasizlar zoobiomassasi tarkibini aniqlang.

1) zorka; 2) nereida; 3) ko'rsichqon; 4) beluga; 5) yumronqoziq; 6) kasatka; 7) zaxkash; 8) aureliya.

- A) 3, 5    B) 4, 6    C) 2, 8    D) 1, 7

26. Zuhrasochning gametofiti ... (a), funariyaning gametofiti ... (b), dala qirqbo'g'imining gametofiti ... (c).

Nuqtalar o'rnini to'g'ri ma'lumotlar bilan to'ldiring.

1) qo'shimcha ildizga ega; 2) barglari patsimon qirqilgan; 3) sporalardan rivojlanadi; 4) poya-bargli o'simlik; 5) anteridiy hosil qiladi; 6) sporali ko'sakchaga ega; 7) zigotadan rivojlanadi; 8) tuxum hujayra hosil qiladi; 9) zigota hosil qiladi; 10) spora hosil qiladi

- A) a - 5, 9; b - 1, 6; c - 5, 10

- B) a - 3, 8; b - 4, 9; c - 5, 8

- C) a - 5, 8; b - 7, 10; c - 3, 9

- D) a - 3, 9; b - 5, 9; c - 1, 2

27. Xo'roz patining chipor rangda bolishi (B) qora bo'lishi (b) ustidan, toj shaklining gulsimon bo'lishi (A) oddiy bo'lishi (a) ustidan to'liq dominantlik qiladi. Pat rangini yuzaga chiqaruvchi genlar jinsiy X, toj shaklini belgilovchi genlar autosoma xromosomada joylashgan. Gomozigotali qora rangli gulsimon tojli tovuq ovogenezining ko'payish davri profazasida b allellari (I) va a allellari (II) soni to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

- A) I-4; II-4    B) I-4; II-0    C) I-2; II-0

- D) I-2; II-4

28. Quyida berilgan sistematik birliklarga mansub o'simliklarni aniqlang.

1) ikki urug'pallalilar sinfi; 2) ochiq urug'lilar bo'limi; 3) yashil suvo'tlar bo'limi; 4) sho'radoshlar oilasi

- A) 1 - kanop; 2 - pixta; 3 - nemalion; 4 - tobulg'i.

- B) 1 - bo'ritaroq; 2 - baobab; 3 - ulotriks; 4 - ismaloq.

- C) 1 - baobab; 2 - oddiy qarag'ay; 3 - ulva; 4 - itsigak.

- D) 1 - astragal; 2 - qarag'ay; 3 - yapon laminariyasi; 4 - saksovol.

**29.** Quyidagilardan to'g'ri fikrlarni aniqlang.

- 1) Lamark "Turlarning paydo bo'lishi" asarining muallifidir;
- 2) "makroevolutsiya" tur doirasida sodir bo'ladiga evolyutsion jarayonlarni o'rganadi;
- 3) "populatsiya" - evolyutsiyaning eng kichik (elementar) birligi;
- 4) "mikroevolutsiya" turdan yuqori sistematik birliklardagi evolyutsion jarayonlarni ifodalaydi;
- 5) evolyutsiyaning boshlang'ich materiali mutatsion o'zgaruvchanlik.

A) 2, 5    B) 1, 2    C) 1, 4    D) 3, 5

**30.** Pnevmonokokk qo'zg'atuvchisi uchun xos tuzilmalarni aniqlang.

- 1) mitoxondriya;
- 2) plazmatik membrana;
- 3) ribosoma;
- 4) donador endoplazmatik to'r;
- 5) DNKning halqa molekulasi;
- 6) silliq endoplazmatik to'r

A) 2, 3, 6    B) 2, 3, 5    C) 1, 4, 6    D) 4, 5, 6

**Test varianti "Test topshiriqlari to'plami 2019" asosida shakllantirilgan:**

1 – 19-bet 5	7 – 11-bet 39	13 – 28-bet 23	19 – 88-bet 12	25 – 119-bet 33
2 – 42-bet 46	8 – 48-bet 2	14 – 117-bet 17	20 – 124-bet 5	26 – 69-bet 9
3 – 23-bet 25	9 – 19-bet 2	15 – 85-bet 30	21 – 62-bet 7	27 – 33-bet 25
4 – 37-bet 6	10 – 81-bet 7	16 – 45-bet 63	22 – 105-bet 12	28 – 54-bet 30
5 – 79-bet 71	11 – 112-bet 25	17 – 72-bet 19	23 – 61-bet 30	29 – 102-bet 33
6 – 94-bet 8	12 – 8-bet 13	18 – 16-bet 22	24 – 34-bet 8	30 – 13-bet 22